

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AKSILOGIK YONDASHUV ASOSIDAGI BOSHQARUV TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI

Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li,

Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat Milliy instituti

1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: zokirovbotir193@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish masalasi aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi hamda ushbu yondashuv asosida boshqaruv tizimini shakllantirishning nazariy asoslari yoritiladi. Maqolada ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning amaliy natijadorligini faqat tadbirlar soni, hisobotlar hajmi yoki tashkiliy ko'rsatkichlar bilan emas, balki shaxsda qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy tanlov madaniyati va mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan baholash zarurligi asoslanadi. Aksiologik yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlarni mazmuniy jihatdan qadriyatlarga yo'naltirish, boshqaruvni esa jarayon emas, natijaviy qadriyatlar ishlab chiqaruvchi tizim sifatida talqin etishga imkon beradi. Maqolada aksiologik boshqaruvning prinsipleri, tarkibiy komponentlari, funksiyalari, samaradorlik indikatorlari va monitoring mexanizmlari tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik yondashuv, qadriyat, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, boshqaruv tizimi, samaradorlik, monitoring, tarbiyaviy muhit, ijtimoiy hamkorlik, refleksiya, ma'naviy tarbiya.

Аннотация. В статье анализируется вопрос повышения эффективности духовной и образовательной работы с точки зрения аксиологического подхода, а также выделяются теоретические основы формирования системы управления на основе этого подхода. В статье утверждается, что практическая эффективность духовной и воспитательной деятельности должна оцениваться не только по числу мероприятий, объёму отчетов или организаторских показателей, но и по формированию у человека системы ценностей, социальной ответственности, гражданского положения, культуры морального выбора и идеологической иммунитета. Аксиологический подход позволяет осмысленно ориентировать духовную и просветительскую работу на ценности и интерпретировать управление как систему, которая производит значимые ценности, а не процесс. В статье представлены принципы, структурные компоненты, функции, показатели эффективности и механизмы мониторинга аксиологического управления.

Ключевые слова: аксиологический подход, ценность, духовная и образовательная работа, система управления, эффективность, мониторинг, образовательная среда, социальное сотрудничество, рефлексия, духовное воспитание.

Abstract. The article analyzes the issue of increasing the effectiveness of spiritual and educational work from the point of view of axiological approach and the theoretical foundations of the formation of the management system on the basis of this approach are highlighted. The article argues that the practical effectiveness of spiritual and educational activities should be assessed not only by the number of events, the volume of reports or organizational indicators, but also by the formation of a person's system of values, social responsibility, civic position, culture of moral choice and ideological immunity. The axiological approach allows to meaningfully orient spiritual and enlightenment work towards values, and to interpret management as a system that produces consequential values, not a process. The article presents the principles, structural components, functions, effectiveness indicators and monitoring mechanisms of axiological management.

Keywords: axiological approach, value, spiritual and educational work, management system, effectiveness, monitoring, educational environment, social cooperation, reflection, spiritual education.

Kirish. Global axborot makonining keskin kengayishi, ijtimoiy munosabatlar murakkablashuvi va yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablariga mos tarzda boshqarish masalasi strategik vazifaga aylanmoqda. Endilikda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni faqat targ'ibot-tashviqot tadbirlari, davra suhbatlari yoki bayramona ko'rinishdagi tashkiliy ishlar yig'indisi sifatida talqin etish yetarli emas. Mazkur faoliyat shaxsning ma'naviy qiyofasi, qadriyatlar ierarxiyasi, axloqiy tanlovi, Vatanga sadoqati, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini shakllantiradigan murakkab pedagogik-ijtimoiy tizimdir. Shu bois uning samaradorligini oshirish masalasi boshqaruv nazariyasi, pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va falsafa kesishgan nuqtada o'rganilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar, yoshlar siyosati va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazaning izchil mustahkamlanishi ushbu yo'nalishga davlat siyosati darajasida yondashilayotganini ko'rsatadi. Xususan, Konstitutsiyada inson qadri, sha'ni va erkin rivojlanishi oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'limning ma'naviy-axloqiy rivojlantiruvchi mazmuni belgilangan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha Prezident qarorlarida esa tizimni mazmunan va tashkiliy jihatdan yangilash vazifalari qo'yilgan [1.6]. Bunday huquqiy zamin ma'naviy-ma'rifiy ishlarni boshqarishda yangi metodologik yondashuvlarni talab etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, qadriyatlar tarbiyasi va ta'lim-tarbiya boshqaruvi masalalari o'zbek va jahon ilmiy tafakkurida turli rakurslarda o'rganilgan. Ma'naviyat tushunchasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, shaxs kamolotiga ta'siri, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mazmuniy poydevorini tashkil etadi. O'zbek pedagogik tafakkurida qadriyatlar tarbiyasi, barkamol shaxsni shakllantirish, ma'naviy-axloqiy rivojlanish va uzluksiz tarbiya masalalari keng yoritilgan. Keyingi yillarda aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari, aksiologik kompetensiya, qadriyatli munosabat va ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni shakllantirishga oid tadqiqotlar ham ko'paymoqda [11.12].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning salmoqli qismi aksiologik yondashuvni asosan o'quvchi yoki talaba shaxsini tarbiyalash mexanizmi sifatida ko'rib chiqadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini aynan boshqaruv tizimi nuqtai nazaridan, ya'ni maqsad qo'yish, rejalashtirish, koordinatsiya, monitoring, refleksiya va tuzatish jarayonlari birligi sifatida o'rganish hali to'liq tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, qadriyatlar asosidagi boshqaruv modeli qanday komponentlardan iborat bo'lishi, uning samaradorligi qaysi indikatorlar bilan o'lchanishi va turli institutlar hamkorligida qanday ishlashi kabi savollar ochiq qolmoqda.

Demak, muammoning o'rganilganlik darajasi ma'lum ilmiy poydevor mavjudligini ko'rsatsa-da, ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqaruvini aksiologik yondashuv asosida nazariy jihatdan yaxlit modelga keltirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola ana shu

bo'shliqni qisman to'ldirishga, mavjud ilmiy qarashlarni integratsiyalashgan boshqaruv konsepsiyasi doirasida talqin etishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning aksiologik yondashuv asosidagi boshqaruv tizimi muammosi bo'yicha nazariy tahlil, tizimli yondashuv hamda qiyosiy pedagogik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va ilg'or tajribalar kontent tahlili asosida umumlashtirilib, aksiologik boshqaruv modelining konseptual asoslari ishlab chiqildi. Natijalar induktiv va deduktiv yondashuvlar uyg'unligida tizimlashtirilib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlillar va natijalar. Maqolada yondashuvlardan biri – aksiologik yondashuvning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Aksiologik yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlarning markaziga qadriyatni qo'yadi va boshqaruv jarayonini shaxs hamda jamoada barqaror qadriyatli munosabatlar, e'tiqodiy mustahkamlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltiradi. Shu ma'noda, maqola ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqaruvini tadbirbozlikdan qadriyatga yo'naltirilgan natijador tizimga aylantirishning nazariy asoslarini ochib berishga qaratilgan.

Avvalo, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholashda hanuzgacha ko'proq tashqi ko'rsatkichlarga tayanish holatlari saqlanib qolayotganida namoyon bo'ladi. Aksar hollarda bajarilgan ishlar soni, reja ijrosi, tadbirlar qamrovi yoki qatnashchilar miqdori ustuvor mezon sifatida olinadi. Holbuki, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning haqiqiy samarasi shaxsning ma'naviy tanlovi, qadriyatlarga sodiqligi, axborot xurujlariga nisbatan tanqidiy pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va kundalik xulq-atvorida aks etadi. Demak, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni boshqarishda natijani sifat jihatidan o'lchash, ya'ni ichki o'zgarishlarni aniqlash muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalari, mahalla, oila, ommaviy axborot vositalari, madaniyat muassasalari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik har doim ham yagona qadriyaviy platforma asosida yo'lga qo'yilmaydi. Natijada ma'naviy-ma'rifiy ta'sirlar parokanda, qisqa muddatli yoki formal xarakter kasb etishi mumkin. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga doir hujjatlarda aynan uzviylik, hamkorlik va tizimlilik talabi qo'yilgani bejiz emas [4–7]. Biroq ushbu talablarni amaliy boshqaruv modeliga aylantirish uchun nazariy asoslangan metodologiya zarur.

Uchinchidan, raqamli muhitda yoshlarning dunyoqarashi tez o'zgarayotgani ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mazmunini yangilashni talab qilmoqda. Endi tarbiyaviy ta'sir bir yoqlama nasihatdan emas, balki dialog, refleksiya, media tahlil, muammoli vaziyatlarni hal etish, qadriyatlar tanlovi va shaxsiy pozitsiyani shakllantirish mexanizmlaridan o'tishi lozim. Bunday jarayonni samarali boshqarish esa boshqaruv subyektlaridan aksiologik kompetensiya, diagnostik madaniyat va tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning aksiologik

asoslarini ochib berish bugungi kunning nafaqat nazariy, balki amaliy ehtiyojidan ham kelib chiqadi.

Aksiologik yondashuvning markaziy kategoriyasi qadriyat hisoblanadi. Qadriyat inson va jamiyat hayotida mazmun beruvchi, xulq-atvorni yo'naltiruvchi, tanlov mezonini belgilovchi ijtimoiy-ma'naviy mezondir. Aksiologik yondashuvda tarbiya va boshqaruvning samarasi insonning muayyan bilimni egallagani bilangina emas, balki u bilimni qaysi qadriyaviy asosda qabul qilgani, ichkilashtirgani va xulqiy amaliyotga aylantirgani bilan belgilanadi. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqaruvi ham mazmunan qadriyatni tanlash, uni kommunikativ, tashkiliy va tarbiyaviy mexanizmlar orqali singdirish, mustahkamlash va qayta ishlab chiqish jarayoni sifatida talqin etilishi kerak.

Aksiologik yondashuv asosidagi boshqaruv tizimi avvalo maqsadni yangicha belgilaydi. Agar an'anaviy yondashuvda maqsad ko'proq ma'lum tadbirni tashkil etish, ma'lumot yetkazish yoki tashkiliy rejani bajarish bilan ifodalansa, aksiologik yondashuvda maqsad shaxs va jamoada ustuvor qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularni ongli xulq normalariga aylantirish va ijtimoiy amaliyotga ko'chirishdan iborat bo'ladi. Bu yerda "inson qadri", vatanparvarlik, qonunga hurmat, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, ijtimoiy hamjihatlik, akademik halollik, milliy o'zlikni anglash va ochiq fikrlash kabi qadriyatlar boshqaruvning semantik markaziga aylanadi [2.8].

Mazkur boshqaruv tizimining birinchi tarkibiy bloki konseptual-maqsadli blokdir. Unda boshqaruvning strategik maqsadi, vazifalari, ustuvor qadriyatlari va kutilayotgan natijalari aniqlanadi. Bunda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar lokal muassasa ehtiyojlari bilan uyg'unlashtiriladi. Masalan, oliy ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqaruvi talabalarda fuqarolik mas'uliyati, kasbiy etika, intellektual halollik va ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirishga yo'naltirilishi mumkin. Umumta'lim maktabida esa shaxsiy intizom, Vatanga muhabbat, oilaviy qadriyatlarga hurmat, media madaniyat va jamoada muloqot ko'nikmalariga urg'u beriladi. Muhimi, maqsadlar umumiy shior darajasida emas, o'lchanadigan va diagnostika qilinadigan sifat natijalari ko'rinishida ifodalanishi kerak.

Ikkinchi blok tashkiliy-jarayonli blok bo'lib, u boshqaruv subyektlari va ularning o'zaro hamkorligini qamrab oladi. Mazkur blokda rahbar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar, pedagoglar, psixologlar, tyutorlar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar, mahalla va hamkor tashkilotlar o'zaro integratsiyalashgan tizim sifatida ko'riladi. Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan subyektlar o'rtasidagi aloqalar buyruqbozlikka emas, hamkorlik, ishonch, dialog va mas'uliyatning taqsimlanishiga asoslanadi. Chunki qadriyat majburlash orqali emas, ishtirok etish, bahs-munozara, birgalikda faoliyat va shaxsiy namuna orqali ichkilashtiriladi. Demak, boshqaruvning o'zi ham qadriyatli bo'lishi, ya'ni tashkilot ichidagi madaniyat e'lon qilinayotgan ma'naviy talablar bilan mos kelishi zarur.

Uchinchi blok mazmuniy-texnologik blokdir. Unda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining mazmuni, shakllari, metodlari va vositalari tizimlashtiriladi. Aksiologik yondashuv shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiya samaradorligi tayyor xulosalarni yetkazishda emas, balki shaxsni qadriyatli tanlov vaziyatiga olib kirishda namoyon bo'ladi. Shu sababli muammoli suhbat, refleksiv esse, loyiha faoliyati, ijtimoiy tashabbuslar, badiiy matn tahlili, media matnlar bilan ishlash, debat, xizmatli o'rganish, mentorlik, ko'ngillilik amaliyoti va rolli vaziyatlar kabi metodlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar shaxsni passiv tinglovchi emas, qadriyatlar bo'yicha faol pozitsiya bildiruvchi subyektga aylantiradi. Qolaversa, bunday texnologiyalar ma'naviy-ma'rifiy ishlarining "tadbir" shaklidan "tajriba" shakliga o'tishiga xizmat qiladi.

To'rtinchi blok diagnostik-natijaviy blok bo'lib, u samaradorlikni baholash indikatorlarini o'z ichiga oladi. Mazkur indikatorlarni to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1) kognitiv indikatorlar – shaxsning qadriyatlar mazmuni haqidagi bilim va tushunchalari;

2) emotsional-qadriyaviy indikatorlar – e'tiqod, munosabat, motivatsiya va qadriyatli identifikatsiya darajasi;

3) xulqiy-amaliy indikatorlar – kundalik xulq, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, jamoat ishlaridagi ishtirok, nizoli vaziyatlarda tanlov madaniyati;

4) institutsional indikatorlar – tarbiyaviy muhit, kommunikativ madaniyat, hamkorlik sifati, tashkiliy shaffoflik va monitoringning ishlashi. Ana shu ko'rsatkichlar tizimi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini bir yoqlama emas, kompleks baholash imkonini beradi.

Aksiologik boshqaruv tizimining asosiy tamoyillari ham alohida nazariy ahamiyatga ega. Birinchisi, qadriyatga yo'naltirilganlik tamoyili bo'lib, barcha reja, faoliyat va baholash mezonlari ustuvor qadriyatlar bilan uyg'un bo'lishini talab qiladi. Ikkinchisi, uzluksizlik va izchillik tamoyili bo'lib, ma'naviy ta'sirning epizodik emas, bosqichma-bosqich va tizimli tashkil etilishini anglatadi [4]. Uchinchi tamoyil, subyektlilik tamoyili, tarbiyalanuvchi va ishtirokchilarni faol hamkor sifatida ko'rishni nazarda tutadi. To'rtinchi tamoyil, integrativlik, oila-ta'lim muassasasi-mahalla-jamoatchilik hamkorligini yagona qadriyaviy makonga aylantiradi. Beshinchi tamoyil, refleksivlik va diagnostiklik, faoliyat natijalarini muntazam tahlil qilib borish, tuzatish kiritish va o'zgaruvchan ehtiyojlarga moslashishni taqozo etadi.

Shu asosda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning aksiologik boshqaruv modeli besh bosqichda ishlashi mumkin. Diagnostika, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va refleksiv tuzatish. Diagnostika bosqichida maqsadli auditoriyaning qadriyatli orientatsiyalari, ehtiyojlari, muammolari va risk omillari aniqlanadi. Rejalashtirish bosqichida ustuvor yo'nalishlar va natija indikatorlari belgilanadi. Amalga oshirish bosqichi mazmuniy-texnologik vositalar bilan ta'minlanadi. Monitoring

jarayonida oraliq natijalar turli usullar orqali baholanadi. Refleksiv tuzatish bosqichida esa olingan ma'lumotlar asosida dastur yangilanadi. Mazkur siklik mexanizm boshqaruvni "bir martalik hisobot" emas, uzluksiz rivojlanish tizimiga aylantiradi.

Muhim jihat shundaki, aksiologik yondashuv asosidagi boshqaruv tizimi rahbarning shaxsiy namunasini ham boshqaruv resursi sifatida ko'radi. Tashkilot rahbari va pedagoglarning muomala madaniyati, adolatli qaror qabul qilishi, akademik va kasbiy etika me'yorlariga rioya etishi, ochiqlik va mas'uliyatni namoyon etishi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yashirin, ammo eng kuchli ta'sir omillaridan biridir. Demak, ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqaruvi alohida bo'lim yoki reja bilan cheklanmay, butun tashkilot madaniyatiga singgan qadriyatlar tizimiga aylanishi zarur.

Alohida ta'kidlash joizki, ma'naviy-ma'rifiy boshqaruv samaradorligi tashkilotning ichki madaniyati bilan bevosita bog'liq. Agar muassasada hurmat, adolat, ochiqlik, mas'uliyat va o'zaro ishonch muhiti shakllanmagan bo'lsa, eng puxta konsepsiya ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli aksiologik boshqaruv nazariyasida "qadriyatlarni targ'ib qilish"dan ko'ra "qadriyatlar asosida yashaydigan muhitni barpo etish" ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Bu esa boshqaruv qarorlari, ichki kommunikatsiya, rag'batlantirish tizimi, nizolarni hal etish amaliyoti va liderlik uslubining ham qadriyaviy tahlilini talab qiladi. Bundan tashqari, raqamli kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalanish aksiologik boshqaruvning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Onlayn platformalar, media loyihalar, podkastlar, qisqa videolar va interaktiv muhokamalar yordamida ma'naviy-ma'rifiy kontentni yoshlarning qiziqishlari hamda idrok uslubiga mos yetkazish mumkin. Biroq bu jarayon mazmunning soddalashuvi emas, balki qadriyatlarning zamonaviy kommunikativ formatlarda yetkazilishi tamoyiliga tayanishi zarur.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishdagi asosiy muammo ko'pincha mazmun va boshqaruvning bir-biridan uzilib qolishidadir. Amaliyotda yuqori ma'naviy g'oyalar e'lon qilinadi, biroq ularni hayotga tatbiq etuvchi boshqaruv mexanizmlari aniq belgilab berilmaydi. Natijada ma'naviy-ma'rifiy ishlar reja va hisobotlarda mavjud bo'lsa-da, tarbiyaviy natijaning chuqur qatlamlariga yetib bormaydi. Aksiologik yondashuv ushbu uzilishni bartaraf etadi, chunki u boshqaruvni qadriyatlarni tanlash, ularni muhitga singdirish va natijani shaxsiy xulq darajasida kuzatish tizimi sifatida qayta quradi.

Muhokama nuqtai nazaridan qaraganda, aksiologik boshqaruv modeli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni formalizm xavfidan chiqarishga xizmat qiladi. Biroq buning uchun bir necha shartlar zarur. Birinchidan, boshqaruv subyektlarining o'zida aksiologik kompetensiya shakllangan bo'lishi kerak. Ya'ni rahbar va mas'ul xodim qadriyatlarning mazmunini, ularning ijtimoiy ahamiyatini va tarbiyaviy mexanizmlarini tushunishi lozim. Ikkinchidan, monitoring vositalari faqat statistik emas, sifat tahliliga ham asoslanishi kerak. So'rovnoma, kuzatuv, refleksiv yozuvlar, fokus-guruh, psixologik diagnostika va portfoliolar bu borada muhim o'rin tutadi. Uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat

muassasaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan integratsiyalashgan bo'lishi lozim, aks holda u periferiya vazifa sifatida qolib ketadi.

Shuningdek, aksiologik yondashuv boshqaruvda individual farqlarni inobatga olish imkonini beradi. Har bir jamoa, hudud yoki auditoriyaning qadriyaviy tajribasi, ijtimoiy muammolari va kommunikativ uslubi turlicha bo'lgani sababli yagona shablon yondashuv kutilgan natijani bermaydi. Shu nuqtai nazardan, aksiologik boshqaruv modeli universal tamoyillarga tayanib, amaliy shaklda moslashuvchan bo'lishi kerak. Bu esa boshqaruvni markazlashgan buyruqdan ko'ra, ilmiy asoslangan, diagnostik va lokal ehtiyojlarga sezgir tizim sifatida tashkil etish zaruratini ko'rsatadi.

Umuman olganda, aksiologik yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda ikki muhim ilmiy natijani beradi:

birinchisi, samaradorlikning mazmuniy mezonlarini aniqlaydi;

ikkinchisi, ushbu mezonlarga erishishni ta'minlaydigan boshqaruv mexanizmini taklif etadi. Shu jihatdan u ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni strategik boshqaruv obyekt sifatida tushunish uchun samarali nazariy platforma bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning aksiologik yondashuv asosidagi boshqaruv tizimi ma'naviy tarbiya jarayonini mazmunan va tashkiliy jihatdan yangicha talqin qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvda boshqaruvning asosiy maqsadi tadbirlar sonini ko'paytirish emas, balki shaxs va jamoada barqaror qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularni xulqiy-amaliy me'yorga aylantirish va ijtimoiy muhitga singdirishdan iborat ekani asoslandi.

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi kognitiv, emotsional-qadriyaviy, xulqiy-amaliy va institutsional indikatorlar birligida baholanishi zarur. Ikkinchidan, aksiologik boshqaruv tizimining nazariy modeli konseptual-maqsadli, tashkiliy-jarayonli, mazmuniy-texnologik va diagnostik-natijaviy bloklardan iborat yaxlit tuzilma sifatida tavsiflandi. Uchinchidan, ushbu tizimning samarali ishlashi qadriyatga yo'naltirilganlik, uzluksizlik, subyektivlik, integrativlik va refleksivlik tamoyillariga tayanishi kerakligi aniqlandi. To'rtinchidan, boshqaruvning diagnostika-rejalashtirish-amalga oshirish-monitoring-tuzatish sikli ma'naviy-ma'rifiy ishlarni formal reja ijrosidan rivojlanuvchi tarbiyaviy tizimga aylantirishga xizmat qilishi asoslab berildi.

Shunday qilib, aksiologik yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlar boshqaruvini ilmiy asoslash, natijadorlik mezonlarini aniqlashtirish va amaliy faoliyatni qadriyaviy mazmun bilan boyitish imkonini beradigan muhim metodologik platformadir. Kelgusida ushbu model asosida turli ta'lim bosqichlari va ijtimoiy institutlar uchun empirik indikatorlar tizimini ishlab chiqish hamda tajriba-sinov asosida uning samaradorligini aniqlash istiqbolli ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O’RQ-637-son, 23.09.2020.
3. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi Qonuni, O’RQ-406-son, 14.09.2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori, PQ-4307-son, 03.05.2019.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, PQ-5040-son, 26.03.2021.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori, 1059-son, 31.12.2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni, PF-60-son, 28.01.2022.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O’zbekiston, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni, PF-5847-son, 08.10.2019.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni, PF-5712-son, 29.04.2019.
11. Xoshimova R.A. O’quvchilarni aksiologik yondashuv asosida ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish // Zamonaviy ta’lim masalalari bo’yicha ilmiy maqola. - 2023.
12. Siddiqov B.S. Umumiy o’rta ta’limda aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida // Pedagogik tadqiqotlar yo’nalishidagi ilmiy maqola. – 2023.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934